

GAPDA GAP BO'LAKLARINING JOYLASHISH TARTIBI

Nasriddinova Sevara Olimjon qizi

Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti Pedagogika fakulteti Boshlanğich ta'lim yōnalishi 3-bosqich 4BT-20 guruh talabasi

Boymatova Munisa Shokir qizi

Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti Pedagogika fakulteti Boshlanğich ta'lim yōnalishi 3-bosqich 4BT-20 guruh talabasi

Sattorova Shohsanam Muzaffar qizi

Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti Pedagogika fakulteti Boshlanğich ta'lim yōnalishi 3-bosqich 4BT-20 guruh talabasi

Dildora Axmedova Boboqulovna

Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti Pedagogika fakulteti Boshlanğich ta'lim yōnalishi 3-bosqich 5-BT-S-20 guruh talabasi

Annotatsiya: O'zbek tilida gap bo'laklarining joylashish tartibi, asosan, erkin bo'lsa-da, ular gapda ma'lum grammatik qoidalar asosida o'rinalashadi. Odatda, gapda ega va unga bog'langan bo'laklar oldin, kesim va unga bog'langan bo'laklar keyin joylashadi, ba'zan aksinchasi ham bo'ladi.

Kalit so'zlar: Gap bo'laklari, grammatik qoidalar, ega, kesim, vositasiz to'ldiruvchi, vositali to'ldiruvchi, hol, ravish, miqdor daraja holi, sabab va maqsad hollari.

O'zbek tilida gap bo'laklarining tartibi, asosan, erkin. Ularning o'rnini almashtirish odatda grammatik holatni o'zgartirmaydi. Masalan: *Oppoq bulutlar qishloq ustidan shoshilmay, tog'ga qarab o'tib ketadi. (S.Ahmad).* - *Qishloq ustidan oppoq bulutlar shoshilmay o'tib ketadi tog'ga qarab.* - *O'tib ketadi shoshilmay tog'ga qarab oppoq bulutlar qishloq ustidan.* - *Shoshilmay o'tib ketadi qishoq ustidan tog'ga qarab oppoq bulutlar.* Mazkur gaplarda gap bo'laklarining o'rinalarini almashtirish grammatik holatni o'zgartirmagan, ammo gap mazmuniga ma'lum darajada ta'sir etgan, negaki har gal boshqa-boshqa gap bo'laklariga odatdagidan ko'proq ahamiyat berilgan. Lekin, shunga qaramay, gap bo'laklari ma'lum bir normativ tartibda joylashish xususiyatiga ega.

O'zbek tilida ega, odatda, gap boshida, kesim gapning oxirida keladi. Ikkinci darajali bo'laklar esa ega va kesim orasida joylashadi. Bunday tartib, asosan, darak gaplarda bo'lib, u **to'g'ri** yoki **normativ tartib** deyiladi.

Har bir gap bo'lagiga nisbatan tartib quyidagicha bo'ladi:

I. Ega, odatda, gap boshida keladi: *Kishilar mirishkor raisni qarsaklar bilan olqishladilar. (Y.Shukurov).*

Yoyiq gaplarda ega ba'zan kesim oldida ham kelishi mumkin: *Uning yigirmataga yaqin qo'y-echkisi borligini ko'p odam bilar edi. (P.Qodirov).*

JOURNAL OF INNOVATIONS IN SCIENTIFIC AND EDUCATIONAL RESEARCH
VOLUME-2, ISSUE-14 (30-January)

Ba'zan ega gapning oxirida ham keladi: *G'o'za umriga zavol-ku u.* (*J.Abdullaxonov*).

II. Kesim odatda gapning oxirida keladi: *Bog'da yetti-sakkiz tup mevali daraxt, ikki chinor, ikki tup mirzaterak o'sgan edi.* (*J.Abdullaxonov*).

She'riyatda, shiorlarda kesim gapning boshida ham keladi:

Intilar borliqni inson

Barkamol etmoq uchun.

Ne ajab, insonni borliq

Barkamol etgan emas.

(*E.Vohidov*.)

III. Vositasiz to'ldiruvchi odatda fe'l kesim oldida keladi. Masalan: *Mashina shamoli brezentning uchini hilpiratib, chakmonning etaklarini tortqilaydi.* (*P.Qodirov*).

Ba'zan vositasiz to'ldiruvchi gapning boshida keladi: *Yomonlik o'tini faqat yaxshilik o'chiradi.* («Oz-oz o'r ganib dono bo'lur»).

Vositali to'ldiruvchi ham ko'pincha kesimdan oldin keladi: *Xayrli va savobli ishlar insonni turli halokatlardan saqlaydi.* (*Hadis namunalari*).

IV. Hol ham asosan kesimdan oldin keladi:

1. Payt holi, odatda, gap boshida, ba'zan egadan keyin, ayrim hollarda kesimdan oldin keladi. Masalan: *Bugun* vahshiy tog'lar orasida u bilan yuzma-yuz keldi. (*S.Ahmad*). *Gazeta yo'q, televizor hali ham ishlamaydi.* (*S.Ahmad*). Erali allaqachon juftakni rostlab qolgan edi. (*S.Ahmad*).

2. O'r in holi, odatda, kesimdan oldin keladi, ba'zan esa gap boshida keladi: ... *mashina tog' etagidagi ellik-oltmish hovlilik Oyko'l qishlog'iga kirib bordi.* (*P.Qodirov*). *Tekislikka yoqqan yomg'ir tog' tepasiga qor bo'lib tushgan ekan.* (*P.Qodirov*).

3. Ravish holi, odatda, kesim oldida, ba'zan gap boshida keladi: ... *barglar orasiga to'planib qolgan oppoq yomg'ir suvi oftobda yaltirab, tirqirab to'kildi.* (*P.Qodirov*). - *Keling,- deb sovuqqina ko'rishdi.* (*P.Qodirov*). *Qo'qqisdan* qorasovuq boshlanib, cho'ponlarni tashvishga solib qo'ydi. (*M.Qoriyev*).

4. Miqdor-daraja holi ham kesim oldida keladi: *Ko'p yurgan ko'p ko'rар, ko'p o'qigan ko'p uqar.* (*Maqol*).

5. Sabab va maqsad hollari kesimdan oldin, gapning boshida yoki o'rtasida keladi: *Aqlning eng katta g'alabalari, ehtimol, ehtiroslar tufayli ro'yobga chiqqandir.* («Tafakkur gulshani»). *Atay* izlab keldim, oq qoya, sen naqadar mag'rur va kibor.

(*Mirtemir*). Endi ularning xatosini tuzatish uchun hammamiz qancha mashaqqat chekamiz.

(*P.Qodirov*).

V. Aniqlovchi aniqlanmishdan oldin keladi. Agar bu tartib o'zgarsa, ularning grammatik holati ham o'zgaradi.

1. Qaratuvchi qaralmishdan oldin keladi: *Har bir kishining so'zi o'z fazilatlari dalili va aqlining tarjimonidir.* («Oz-oz o'r ganib dono bo'lur»).

2. Sifatlovchi sifatlanmishdan oldin keladi: *Havoda ... yong'oq hazonlarining otkir hidi gurkirdi.* (O'Hoshimov). *Muvaffaqiyatli tarbiyaning siri - o'quvchiga hurmatda bo'lish.* («Tafakkur gulshani»).

Gapda sifatlovchi birdan ortiq qo'llansa, ularning tartibi quyidagicha bo'ladi:

1) sifatdosh bilan ifodalangan sifatlovchi+sifatlanmish: *U atrofida mavj urib turgan yashil daraxtlarga ... zavq bilan tikilardi.* (P.Qodirov).

2) sifatdosh bilan ifodalangan sifatlovchi + olmosh bilan ifodalangan sifatlovchi + sifat bilan ifodalangan sifatlovchi + sifatlanmish: *Osmonning yarmigacha chiqib borgan bu bahaybat devorning u yer - bu yerida cho'ponlar yoqqan gulkhanlar milt-milt qiladi.* (P.Qodirov).

3) **-dagi** affiksli so'z bilan ifodalangan sifatlovchi + sifat bilan ifodalangan sifatlovchi + sifatlanmish: *Hulkar chelakdagi tiniq suvdan ... olib kelib berdi.* (P.Qodirov).

4) miqdor tushunchasini bildiruvchi so'z (son, olmosh, ravish) bilan ifodangan sifatlovchi + sifat bilan ifodangan sifatlovchi + sifatlanmish: ... *svudan bir chinni kosa olib kelib berdi.* (P.Qodirov).

5) sifatdosh bilan ifodalangan sifatlovchi + son bilan ifodalangan sifatlovchi + sifatlanmish: *Yomg'irdan keyingi loyqada muhrlanib qolgan ikkita izning nimasidir go'dak tovonini eslatar edi.* (P.Qodirov).

Izohlovchi izohlanmishdan oldin yoki keyin keladi: *O'shanda Oxunboboev bilan quvalik temirchi Shakarxon Mo'minova degan juvonning suvrati gazetada chiqqandi.* (S.Ahmad). Norboy ota usta Qambarga gap uqtirib ketdi. (P.Qodirov).

Agar gap bo'laklarining normativ, to'g'ri tartibi o'zgarsa, **inversiya** hodisasi ro'y beradi. Inversiya hodisasi ko'proq jonli tilda va she'riyatda kuzatiladi. Inversiyada odatda gap bo'laklarining grammatik holati o'zgarmaydi. Masalan: *Zotiljam kasali-yu yurak siqilishi nimaligini bilmaydi o'sha xonadon ahli.* (J.Abdullaxonov). (Ega, ega tarkibi gap oxirida kesimdan so'ng kelgan). *Chindan ham hayvonot bog'i desa bo'larkan bu yerni.* (J.Abdullaxonov). (Vositasiz to'ldiruvchi inversiyaga uchrab kesimdan keyin qo'llangan.) *Qaysi bir gazetada ota-bolaning ko'chat ekib turgandagi surati ham e'lon qilingan edi bir yili.* (J.Abdullaxonov). (Payt holi gap oxirida kesimdan keyin kelgan.).

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Ona tili: o'rta maktablarning 8-sinfi uchun darslik / M. Qodirov va boshqalar. – T.: Cho'lpon nomidagi NMIU, 2019. – 144-bet.

2. M.Hamroyeva, D.Muhammedova, D.Shodmonqulova, X. G'ulomova, Sh. Yo'ldasheva "Ona tili" Toshkent-2008.

3. R.Sayfullayeva, B. Mengliyev, G.Boqiyeva, M. Qubanova, Z.Yunusova, M.Abuzalova "Hozirgi o'zbek adabiy tili". Toshkent-2009.